

VAZN O'LCHOV BIRLIKLARI NOMLARINING STRUKTUR XUSUSISIYATLARI

Sh. Adxamova

Doktorant, Farg'ona davlat universiteti

G'aniyeva Dildora Azizovna

Ilmiy rahbar f.f.n dotsent

Atamalarining rasmiy tuzilishini tavsiflash ko'pgina terminologik tadqiqotlarning an'anaviy tarkibiy qismidir. Shu bilan birga, atamalarining tarkibiy turlarini sinxron o'rganish atamalarni shakllantirishning ba'zi usullari va modellarining samaradorligi to'g'risida yetarlicha ishonchli ma'lumot bermaydi. Termin hosil qilish usulidan foydalanishning past darajasi ishlatilmaydigan usulga ham, hali yetarlicha rivojlanmagan yangi usulga ham xos bo'lishi mumkin.³² Bu o'rinda tildagi o'zgarish va ularning sabablarini ,paydo bo'lishi kabi jarayonlarni o'z ichiga olgan diaxronik tahlil terminologiyaning rivojlanish tendensiyalarini va namoyon bo'lish xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Bu esa terminlarni sinronik tahlildan ko'ra chuqurroq tadqiq etishni ta'minlaydi. S. V. Grinev va E. A. Zemskayalar ham ushbu nuqtayi nazarga qo'shilib o'z tadqiqot ishlarida ushbu tahlildan samarali foydalanishgan.

Zamonaviy terminologiyada kasbiy soha, standartlashtirish darajasi, atamalarining kelib chiqishi va funksional roli kabi turli mezonlarga ko'ra tasniflangan terminologiyalarning har xil turlari ajralib turadi. Ularga misol qilib Muayyan professional yoki ilmiy sohalarda qo'llaniladigan, Fanlararo ,o'zga tildan kirib kelgan terminlarni kiritishimiz mumkin.

Terminologik ishning asosiy tamoyillaridan biri shundaki, u til qoidalariga rioya qilishi kerak. Agar til yaxshilanishlardan foyda ko'rishi kerak bo'lsa, maqsad bu haqda bilish va uni boyitish, terminologik ish hech qachon uning tuzilmalarini to'liq hurmat qilish shartiga javob bermasdan sodir bo'lmaydi. Shunday qilib, terminologiya amaliyoti tilni qanday bo'lsa, shunday taqdim etish uchun talab qilinadi; uning asl mazmunidan imkon qadar foydalanish; va tizim va uning bazasida joylashgan leksikani iloji boricha aniqroq yoritib berish kerak.³³ Darhaqiqat, terminologiya tilda mavjud bo'lgan grammatik, sintaktik va fonologik birliklarni hisob qilishi kerak. Til tizimiga yangi yaratilgan

³² Пониделко Артём Особенности формирования метрической лексики в английском и русском языках

³³ Halaoui, Nazam. 1990. "Questions de méthode en terminologie des langues africaines". Terminologies nouvelles 3. 5–241

moslashuvlar tabiiy ravishda mos kelishini uning yaxlitligini saqlab qolishini ta'minlaydi.

Terminning nominativ xarakteri uning : tushunchalarni, obyektlarni yoki hodisalarni aniq tarzda nomlash va aniqlash kabi funksiyasini anglatadi. Bu Dmitry Lotte, Sergey Grinev-Grinevich, and Valeriy Leichik ishida markaziy o'rin tutadi, chunki atamalar aniq aloqani ayniqsa ixtisoslashgan sohalarda ta'minlab beradi.

Terminlarning morfemik tuzilishini tahlil qilish odatda ularning tilda shakllanishi va funksiyasi bilan bog'liq bir nechta asosiy xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi. Bularga quyidagilar kiradi:

- ❖ Morfemik tuzilishi va turlari
- ❖ So'z yasash modellarining mahsuldorligi
- ❖ Funksional vazifasiga ko'ra
- ❖ Struktural barqarorlik
- ❖ Tillararo o'zlashgan so'zlar
- ❖ Kombinatsion so'zlar yaratish

1.MORFEMIK TUZILISH o'z ichiga quidagilarni oladi.

Sodda atamalar: bitta ildiz morfemasidan iborat (masalan, gram, grain, dram, stone, slug, tod, obol, mark).

Murakkab atamalar: ikki yoki undan ortiq ildiz morfemalarini (hundredweight, troy ounce, troy pound, short ton, long ton, metric tonne, carat weight)

Affiksial atamalar: asosning ma'nosini yaxshilaydigan prefikslar, suffikslar yordamida hosil bo'ladi. Ushbu atamalar ko'pincha metrik prefikslardan yoki asosiy birliklarga qo'shilgan tavsiflovchi affikslardan iborat bo'ladi. Ularni o'z navbatida **ikki** guruhchaga bo'lib tushuntirishimiz mumkin.

Metrik prefikslar bilan affiksial atamalar:

Milligram (milli- = 1/1,000)

Centigram (centi- = 1/100)

Decigram (deci- = 1/10)

Gram (base unit in metric weight)

Decagram (deca- = 10)

Hectogram (hecto- = 100)

Kilogram (kilo- = 1,000) (<https://www.merriam-webster.com/>)

2. SO'Z YARATISH MODELLARINING MAXSULDORLIGI- bu jarayonda qo'shma so'z, affiksatsiya yoki o'zlashgan so'zlar orqali maxsus turkumga kiradigon so'zlarni hosil qilish tushuniladi.

Yuqori mahsuldorlik affikslar hisobiga yuz beradi. Ya'ni **metric perefikslar:**

- milligram
- kilogram
- centigram .

Suffikslar yordamida

- -weight in "Hundredweight"
- -tonne in "Metric tonne"

O'rtacha Samaralik bu murakkab so'zlar hisobiga yuz beradi Ya'ni ikki va undan ortiq so'zlarni birlashtirib. Bunga misol tariqasida hundredweight (hundred + weight), short ton and longton, troy ounce larni keltirishimiz mumkin

Past Mahsuldorlik mavjud so'zlarni konvertatsiya qilishda keng kuzatiladi. Mavjud bo'lgan so'zlarni uncha o'zgartirmagan hoda ishlatish. Bunga slug va stone so'zlari misol bo'la oladi.

Tarixiy jihatdan Samaralilik . Bunga asosan boshqa tillardan o'zlashgan so'zlardan kirib kelgan so'zlarni taqdim etishimiz mumkin.

Troy (Fransiyaning Troyes bozoridan o'zlashgan).

Karat (yunoncha kereratsiyadan, ya'ni "karob urug'i" degan ma'noni anglatadi).

Grain (savdo-sotiqda vazn standartlari sifatida donalardan foydalanishdan kelib chiqqan).

Yuqoridagilarni jadval ko'rinishida xulosalaydigan bo'lsak quidagicha bo'ladi.

3. FUNKSIONAL VAZIFASIGA KO'RA. Og'irlik o'lchov birliklariga doir atamalarning ma'lum bir kontekstda amaliy va funksional ishlatilishi bilan qanday shakllanishini anglatadi. Og'irlik bilan bog'liq so'zlar ko'pincha ularning tarixiy, madaniy yoki ilmiy qo'llanilishidan kelib chiqadi.

Savdo-sotiqga doir kontekstda. Deyarli barcha og'irlikka doir so'zlar tijorat va savdo jarayonlaridagi ehtiyojlardan kelib chiqqan.

Ton-tonna eski fransuz so'zidan olingan *katta bochka* degan ma'noni anglatadi. Qadimda sharob va boshqa suyuqliklarni o'lchash uchun ishlatilgan. Vaqtlar o'tib savdo va transportda katta vazn yoki massani anglatadigan darajada kengaygan.

Quintal-lotin tilidagi centrum so'zidan kelib chiqqan, yuz degan ma'noni anglatadi. 100 kilogram vayoki 100 funtga teng. U tarixan qishloq xo'jaligi savdosida don va mahsulot kabi ommaviy oziq-ovqatlarni o'lchash uchun ishlatilgan.

Pound (funt) lotin tilidagi tarozi degan so'zdan olingan. Qadimgi Rimning asosiy vazn birliklaridan biri hisoblanadi Keyinchalik Yevropa savdo tizimlarida markaziy o'rinni egalladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Пониделко А. Особенности формирования метрической лексики в английском и русском языках. М.-2006
2. Halaoui, Nazam. 1990. “Questions de méthode en terminologie des langues africaines”. Terminologies nouvelles 3. 5–241
3. Новодранова В. Ф. Исторические процессы в терминообразовании // Терминоведение.- М., 1995. - Вып. 2-3.- С. 80-81. Новинская Н. В. Роль имен собственных в формировании современной терминологии // Научно-техническая терминология.- М., 1987.-Вып. 8.- С. 10-13.
4. (<https://www.merriam-webster.com/>) 11.12.2024

